



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-123-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarorining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari U.Raxmatovning hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarorining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari U.Raxmatovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining o‘rinbosari (U.Raxmatov), aloqador tashkilot va idoralar rahbarlari bilan birgalikda;

- dasturga kiritilgan obyektlarni ta’minlash ishlarini foydalanishga topshirish bo‘yicha bajarilgan qurilish-montaj va ta’minlash ishlarining hajmi va sifati bo‘yicha nazorat o‘rnatish;

- qurilish-pudrat ishlarining sifatli bajarilishi va loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini, shuningdek, loyihalarni belgilangan muddatlarda yakunlash;

- mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishda aholi murojaatlari va takliflarini inobatga olgan holda mahallalar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish vazifasi

topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari:

-o‘zlari saylangan MFYlardagi loyihalarni sifatli bajarilishi ustidan deputatlik nazoratini olib borish tavsiya etilsin.

4. Tuman prokuraturasi (S.Ramazonov)ga:

Dasturning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishi, shu jumladan obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari o‘z vaqtida va sifatli ishlab chiqilganligi, har bir loyiha (obyekt) bo‘yicha mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi, qurilish-ta‘mirlash ishlari sifatli bajarilishi, xarid qilish tartib-taomillari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi ustidan belgilangan tartibda prokuror nazorati tadbirlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

5. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari va tegishli tashkilot rahbarlari 2-chorak yakuni bilan xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma ma‘lumot kiritib borsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**